

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.02/09.07.2020.Tar.70.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI**

SA‘DULLAYEVA ZAMIRA RAVSHAN QIZI

**XX ASR O‘ZBEKISTON BADIY HUNARMANDCHILIGINI
MUZEYLASHTIRISH**

17.00.04 – Tasviriy va amaliy-bezak san‘ati

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy va madaniy ob’ektlarni
konservatsiya qilish ta‘mirlash va saqlash**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

UO‘K: 745/749:069.01-047.37(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Sa’dullayeva Zamira Ravshan Qizi

XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirish.....5

Sadullaeva Zamira Ravshan kizi

Museumification of Artistic handicrafts of Uzbekistan of the 20th century.....29

Саъдуллаева Замира Равшан кызы

Музеефикация художественного ремёсла Узбекистана XX века55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....59

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.02/09.07.2020.Tar.70.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI**

SA‘DULLAYEVA ZAMIRA RAVSHAN QIZI

**XX ASR O‘ZBEKISTON BADIY HUNARMANDCHILIGINI
MUZEYLASHTIRISH**

17.00.04 – Tasviriy va amaliy-bezak san‘ati

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy va madaniy ob‘ektlarni
konservatsiya qilish ta‘mirlash va saqlash**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.1.PhD/San104. raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o‘zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.history-museum.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailova Jannat Xamidovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Dilafruz Muxsinovna
san’atshunoslik fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Orifjonova Gulra’no Ravshan qizi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.02/09.07.2020.Tar.70.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko‘chasi, 3-uy, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Kichik majlislar zali Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-44-25; e-mail: info-historymuseum@academy.uz O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko‘chasi, 3-uy). Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “__” _____ dagi № ____ - raqamli reyestr bayonnomasi.)

A.A.Madramimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b., tarix fanlari doktori, professor

D.O.Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

B.V.Xasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo‘ylab shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayoni bugungi kunda barcha sohalar kabi badiiy hunarmandchilik, muzey ishini ham cheklab o‘tmayapti. Tuzumlar o‘zgarmasin badiiy hunarmandchilik o‘zining azaliy badiiy-obrazli tizimini davom ettirib, rivojlanaverdi. Jahonning yirik muzeylari va shaxsiy kolleksiyalarida saqlanayotgan amaliy-bezak va badiiy hunarmandchilik buyumlari oradan necha asrlar o‘tsada o‘z dolzabrligini yo‘qotmay kelmoqda. Ayniqsa, ko‘plab davlatlarda qo‘l mehnati samarasi bo‘lgan badiiy saviyasi yuqori buyumlarning ishlab chiqarilishida uzilishlar, ba‘zi badiiy hunarmandchilik sohalarini inqirozini oldini olishga harakat qilinayotgani ham mazkur mavzuning dolzabrligini belgilab beradi.

Jahon san’atshunosligida amaliy-bezak san’ati sohalarini, ularning an’analarini saqlash, namoyish etish va targ‘ib qilish hamda kelajak avlodga yetkazib berishda muzeylar faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, muzey kolleksiyalarini sistemali asosda to‘ldirib borish, mavjud kolleksiyalardagi uzilishlarni bartaraf etish maqsadida rejali ekspeditsiyalarni amalga oshirish mazkur soha oldida turgan muhim vazifalardandir. Shuningdek, turli yot g‘oyalar avj olgan pallada muzeylarda badiiy hunarmandchilik buyumlari ko‘rgazmalarini tashkil etish orqali insonlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

“Ma’lumki, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san’ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlarini rivojida alohida o‘rin tutadi”¹. O‘zbekiston madaniyatini xorijiy mamlakatlarga eksport qilishda badiiy hunarmandchilik muhim vizitka sifatida namoyon bo‘lishi dolzarb maasalalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda davlat tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ularda aholini ish bilan ta’minlash, mavjud xalq hunarmandchiligi sohalarini yana-da rivojlantirish, sohani tubdan isloh qilish, unutilgan sohalarini qayta tiklash, asrlar mobaynida avlodan-avlodga meros bo‘lib kelayotgan sohalarini zamonaviy jarayondagi muhitini (ekologiyasini) loyqalantirmagan holda davomiyligini ta’minlash masalalariga urg‘u berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yana-da oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 25-maydagi PQ-261-son “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // “Xalq so‘zi”. – №192 (7422). – Toshkent, 2019-yil, 15-sentabr. – B. 1.

son “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy – ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirilishini san‘atshunoslik va muzeyshunoslik kesimida tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Dissertasiyaning mavzusi ilgari, asosan, rus va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Xorijiklar ham o‘rganishgan. Lekin ular sovet va mustaqillik davrlari yaxshi o‘rganishmagan. O‘zbekiston san‘atining sovet davridagi baynalminal sahifasini ular asriy an‘analarni buzilishi, deb tushunadilar.

Birinchi guruhga rus olimlari tomonidan mustaqillikkacha yaratilgan ilmiy ishlar kiritildi. Har davrning o‘zining siyosiy va mafkuraviy qarashlari bo‘lganidek, XX asr ham ilgari sovet mafkurasi nuqtai nazaridan, o‘z davrining ilg‘or siyosatchilarining ilmiy asarlaridagi metodologiyadan kelib chiqib o‘rganilgan va bundagi yondoshuvlarning ayrim jihatlari zamonaviy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqishga, dolzarbligini yo‘qotgan qarashlar yangilanishga muhtoj.

“SSSR” degan nom – O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan keyin ilmiy adabiyotlardan norasmiy olib tashlandi. Mualliflar “Sovet ittifoqi” atamasini ishlatmaydigan bo‘ldilar. Vaholanki, ularni eslash – sovet tuzumini qumsash emas, balki 70 yil davomida sotsialistik lager mafkurasini O‘zbekiston san‘atiga ko‘rsatgan ta‘sirini tushunishdan iborat, xolos. Injilsiz nasroniylar madaniyatini, Qur‘onsiz (Hadissiz) islom madaniyatini tushunib bo‘lmagandek, sovet mafkurasiz (sotsialistik realizm), tuzum asoschilarining g‘oyalarisiz ko‘pmillatli baynalminal madaniyatning ma‘nosini tushunib bo‘lmaydi. O‘zbekiston madaniyati ham o‘sha kezlari ateizmga tayangan baynalminal madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan.

XIX asrning oxiridan Kavkaz va O‘rta Osiyo chor Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan. Turkiston xalqlarining badiiy hundarmadchiligini ilmiy asnoda o‘rganish aynan shu yillarga to‘g‘ri keladi. Bundagi adabiyotlar orasida diqqatimizni Rossiyaning Turkistondagi birinchi general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman (1818-1882) tomonidan ruslarni va G‘arbni Turkistonning 1917-yilgacha etnografiyasi, geografiyasi, iqtisodi va madaniyati bilan tanishtirish maqsadida jami 1200 dan ziyod fotolar bilan nashr qilingan “Turkiston albom”i

tortdi². Unda badiiy hunarmandchilikka oid qimmatli fotolar chop qilingan.

Turkiston badiiy hunarmandchiligi va ularni muzeylashtirish masalalari ayrim rus olimlarining ham esdaliklarida uchraydi. Lekin ularda bizning tadqiqot ob'ektimiz va uning predmeti etnografik ashyo sifatida o'rganilgan bo'lib, masalan S.M.Dudin (1863-1929), N.A.Kirpichnikov, V.V.Bartold (1869-1930), A.A.Semyonov (1873-1958), A.M.Mironov (1866-1929), B.P.Denikelarning (1885-1941)³ tadqiqotlarida Turkistonning etnografiyasiga oid fotolavhalar, adabiyot va madaniyatiga oid qimmatli ma'lumotlar, me'morligi, tasviriy va amaliy-bezak san'atiga oid ma'lumotlar mavjud.

Rossiyalik olimlardan M.S.Kagan, P.G.Bogatiryov, V.M.Vasilenko, M.A.Nekrasovalar⁴ nazariya va metodologiya, badiiy tanqid masalalariga oid qimmatli tadqiqotlarni olib borishgan.

Ikkinchi guruhga oid adabiyotlarda O'zbekiston badiiy hunarmandchiligi va uni muzey kolleksiyalaridagi holati sohalar kesimida mahalliy olimlarning ko'plab adabiyot va ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Masalan, M.A.Bikjanova (1900-1974), I.I.Notkin (1928-y.t.), M.K.Raximov (1903-1985), G.L.Chepeleveskaya, A.S.Morozova, V.G.Moshkova, S.Maxkamova, D.A.Faxretdinova, T.A.Abdullayev, A.A.Hakimov⁵ kabi olimlar amaliy-bezak san'atini qator sohalarini alohida o'rganishgan. O'zbekiston san'atshunosligi ham aynan Rossiya san'atshunoslik maktabi an'analari asosida shakllangan.

Mustaqillik yillarida mahalliy olimlar A.A.Hakimov, K.B.Akilova, S.S.Bulatov, S.Sh.Aliyeva, E.F.Gyul, R.S.Fatxullayev Q.Jumayev, Sh.Q.Abdullayeva, I.A.Umarova, Z.H.Nasirova, B.Nodirlar⁶ tomonidan badiiy

²Туркестанский альбом. 1872. – Ташкент.Тип. Туркестанского губернатора. - <https://www.loc.gov/search/?q=turkestan+album+1872+&sp=2>

³ Отчет С.М.Дудина о поездках в Среднюю Азию в 1900–1902 гг. С фотографиями С.М.Дудина. Подготовка текста, вступительная статья и примечания Т.Г.Емельяненко. – М.: Фонд Марджани, 2021. (Научный архив Российского этнографического музея, ф. 1, оп. 2, № 247); Ковровые изделия в Средней Азии. // Сборник музея антропологии и этнографии Академии Наук». Вып. VII. – Л., 1928.; Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов в Самаркандской области. Справочная книжка Самаркандской области, V (1897).; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинение, Т.II. ч. 1. 1963. 167–433 с.; Семёнов А.А. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии // Известия Средазкомстарис. 1928. Вып. 1. 11–13 с.; Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте // Известия Средазкомстарис. Вып.1. – Ташкент, 1926. 295–331 с.; Денике Б.П. Искусство Востока: Очерк истории мусульманского искусства. – Казан: Изд.комбината издательства и печати ТАССР, 1923.

⁴ Кagan M.C. О прикладном искусстве. Некоторые вопросы теории. – Л.: Художник РСФСР, 1961.; Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. – М.: Искусство, 1971.; Василенко В.И. Народное искусство. Избранные турды о народном творчестве X–XX вв. – М.: Совесткий художник, 1974.; Некрасова М.А. Народное искусство как часть культуры: теория и практика. – М.: Изобразительное искусство, 1983.

⁵ Бикжанова М.А. Ташкентская вышивка. – Ташкент: Фан, 1948.; Ноткин И.И. Бухарская резьба по ганчу в работах Усто Мумина Мурадова. Научная редакция Л.И.Ремпеля. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1960.; Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: АН УзССР, 1961.; Чепелевская Г.Л. Сузани Узбекистана. – Ташкент.: Гослитиздат УзССР, 1961.; Морозова А.С. Ковры народов Средней Азии конца XIX–начала XX вв. Материалы экспедиции 1929–45 гг. – Ташкент: Фан, 1970.; Мошкова А.Г. Ковры Средней Азии. – Ташкент.: Фан, 1970.; Махкамова С. Узбекские абровые ткани. – Ташкент: Госиздат, 1963.; Фахретдинова Д.А. Декоративно–прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Г.Гулям, 1972.; Абдуллаев Т.А. Ремесла Узбекистана XIX–XX вв. – Ташкент: Фан, 1976.; Хахимов А.А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиции и новаторства). – Ташкент: Фан, 1988.

⁶ Хахимов А.А., Гюль Э.Ф. Байсун. Атлас художественных ремёсел. – Ташкент, 2006., Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкента, 2013. – С. 207; Ўзбекистон хунармандчилиги дурдоналари. – Тошкент, 2019.; Акилова К.Б. Народное декоративно–прикладное искусство Узбекистана: XX век. – Ташкент, 2005., Лакли миниатюра: шаклланиш муаммолари. // SAN'AT –Тошкент, 1998. – №1-3.

hunarmandchilik sohalar kesimida o'rganilishi davom ettirildi.

N.S.Sodiqova, R.V.Almeyer, G.Y.Dresvyanskaya, J.X.Ismailova, R.S.Fatxullayev, D.T.Kuryazova, D.A.Qurbonova, K.S.Nishanova, V.S.Fayziyeva⁷ va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida muzeyshunoslikning tarixi, istiqboli, muammolari, muzeylashtirilishi kabi masalalar o'rganilgan.

Uchinchi guruhga xorijlik olimlar tomonidan nashr etilgan adabiyotlar kiritildi. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijliklar XX asr O'zbekiston badiiy hunarmandchiligi bilan jiddiy shug'ullanishmagan. Sababi – ularning muzeylarida

– Б.39-40.; Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Мехнат, 1991. – 384 б.; Алиева С. XI–XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадий хусусиятлари. Санъатшунослик фанлари докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2018., Гиждувон кулолчилиги анъаналари. // SAN'AT. – Тошкент, 2000 – № 3. – 38 б.; Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, 2005; Ковры Узбекистана: история, эстетика, семантика. Монография. – Ташкент, 2019.; Фатхуллаев Р.С. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг 80 йилларида Ўзбекистон амалий–безак санъатидаги тасвирий мавзулар. Санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасига талабгор диссертация. – Тошкент. 2000. – 165 б. Санъатшунослик илмий –тадқиқот институти кутубхонаси. – ИА(М)Ф–27, № 1473., Керамика Узбекистана. Опыт систематизации // Мир музея. – №1. – Москва, 2011. – С.54-57., Ўзбекистон давлат санъат музейининг “Қолиплар” коллекцияси. // SAN'AT – Тошкент, 2019. – №3. – Б.28-31., Узбекская тесьма: на примере нуратинской вышивки // Мир музея. №3. – М., 2006. – С.40–44., Колыбы Узбекистана // Мир музея. – №3. – Москва, 2010. – С.46., Dialogue of cultures in the history of art of Uzbekistan: issues of cultural ecology in art. // European Journal of Arts. - № 1. – Vienna, 2021. – P.160-163.; Жумаев Қ.Бухарская традиционная вышивка конца XIX – начала XX века: Автореф. Дис.на соиск. учен. степ. канд. искусствоведения: 17.00.04. – Ташкент. 2003., Бухоро сўзаналарида жонли мавжудлар тасвири. // Ж. SAN'AT – Тошкент, 2003. – №4. – Б.29-30.; Абдуллаева Ш. Узбекская традиционная вышивка 19 века в собрании ГМИ Узбекистана (к проблеме изучения художественных и локальных особенностей) – Ташкент, 2001.; Умарова И.А. Проблемы и тенденции развития нетрадиционной керамики Узбекистана 1970-90-х гг. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Ташкент, 1995.; Насирова З. XX аср - XXI аср бошлари Ўзбекистон жанубий худудларининг анъанавий каштачилиги: Санъатшунослик фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2011. – 156 б.; Нодир Б. XX – XXI асрларда Ўзбекистон жанубий худудларидаги кўнғиротлар амалий санъати (бадий тўқимачилик мисолида). Санъатшунослик фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертацияси – Тошкент, 2019., Ўзбекистон амалий санъати. – Тошкент, San'at, 2021. – 367 б.

⁷ Содиқова Н.С. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981; Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. Тошкент, 1999. – № 1–2. – Б. 16–23.; Альмеев Р.В. Бухара – город музей. – Ташкент: Фан, 1999.; Дресвянская Г.Я. Музей и общество // Мозийдан садо. – Ташкент, 2000. – № 1–2. – С. 30–33.; Исмаилова Ж.Х. Музейлар тарихимиз кўзгуси. // Мозийдан садо. – №2. – Тошкент, 2003. – Б.4–5; Исмаилова Ж.Х. Ислом ва хунармандчилик. // Ўзбекистоннинг ислом цивилизациясига қўшган ҳиссаси. Тошкент–Самарқанд Имом Бухорий республика илмий–маърифий маркази нашриёти. – 2007. – Б.278–280; Исмаилова Ж.Х. Музейлар мозий мактабидир. // Мозийдан садо. – №4. – Тошкент, 2014. – Б.6–7; Исмаилова Ж.Х. Туркий халқларнинг хунармандчилик уюшмалари тарихидан. // О'zbekiston–Turkiya munosabatlari tarix ko'zgisida qadimgi davr, o'rta asrlar va hozirgiz zamon)” mavzusidagi xalqaro konferensiyasi materiallari to'plami. – Тошкент, 2021. – Б.57–60., 16.; Фатхуллаев Р.С. Охранный ключ: документ о защите музейных предметов // Материалы международной научной конференции «Ислам в России и за её пределами: история, общество, культура», посвященной 100-летию со дня кончины шейха Батал-хаджи Белхароева. 22-23 октября. – СПб.: Магас, 2011. – 348-356 с., Ўзбекистон амалий–безак санъатини музейлаштириш масалалари. // “Хунармандчилик ва халқ амалий санъатини ривожлантириш истиқболлари”. Халқаро илмий–амалий конференция. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б.155-159., Дом-музей Мухита Рахимова. // Мозийдан садо. – №2. – Ташкент, 2005. – С.6-7., XIX-XX аср Ўзбекистон амалий–безак санъатини музейлаштириш тарихидан. // SAN'AT – Тошкент, 2018. – №4. – Б.33-37.,Художественная экспертиза в музеях: возможна или нет? // Общественное мнение. Права человека. - №4. – Ташкент, 2010. – С.38-41.; Курязова Д. Т. Ўзбекистон моддий-маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати. – Тошкент, 2021. – 89 б.; Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Тошкент: SAN'AT, 2010. – 154 б.; Курбонова Д.А. Дунё музейларидаги меросимиз. – Тошкент, 2017. – 166 б.; Нишанова К.С. XIX–XX асрларда Ўзбекистон бадий музейларининг ривожланиш тенденциялари. Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Тошкент, 2021. – 49 б.; Файзиёва В. С. Ўзбекистон давлат санъат музейи: тарихи, ривож ва истиқболи (XX–XXI асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Тошкент, 2021. – 23 б.

bizning moddiy madaniyatimizga oid kolleksiyalar XX asr boshigacha bo'lgan davr bilan tugaydi. Mustaqillikning ilk yillarida Linden muzeyida (Shtutgard, Germaniya) o'tkazilgan "O'zbekiston – buyuk ipak yo'li vorisi" nomli qo'shma ko'rgazma tashkil qilindi va professor Y.Kalter boshchiligida yuqoridagi nomda katalog nashr qilindi⁸.

Lekin katalogga an'anaviy xalq amaliy-bezak san'ati namunalari va ozroq badiiy hunarmandchilik buyumlari kiritildi. O'zbekiston badiiy hunarmandchiligining sovet davridagi taqdiri ko'rgazma va katalogda yoritilmadi. Mualliflar hoynaxoy bu davrga tushkunlik davri deb qarashgan.

K. Gibbon va A. Xeyl⁹ning ilmiy izlanishlarida O'zbekiston hududidagi ko'chmanchilar amaliy-bezak san'atining kashtachilik sohasi ilmiy tadqiq etilgan.

Kashtachilikda tikiladigan predmetlardan biri – jiyaklar tadqiqiga bag'ishlangan salmoqli izlanishlardan biri – Berlindagi Etnografiya muzeyining sobiq ilmiy xodimi Gizela Dobrovskiy¹⁰ning ilmiy ishi hisoblanadi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqotning ayrim masalalari "Yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda islom tasviriy san'atining o'rni" mavzusidagi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutda 2018-2020-yillarda amalga oshirilgan PZ-2017-0930403 raqamli amaliy tadqiqotlar doirasidagi Grant loyihasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – badiiy hunarmandchilikning nazariy masalalari, O'zbekiston badiiy hunarmandchiligi sohasining XX asr mobaynidagi rivojlanish yo'llari, milliy hunarmandchilikning obrazli tizimini, XX asr O'zbekiston badiiy hunarmandchiligi yirik badiiy muzeylari kolleksiyalarida shakllanish tarixini va muzeylashtirish aspektlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- mavzu bo'yicha nashr qilingan adabiyotlarni tahlil qilib, ayrim atamalarni qayta ko'rib chiqish;
- XX asrdagi O'zbekiston badiiy hunarmandchiligini ilmiy o'rganishdagi metodologiyani qayta ko'rib chiqish;
- XX asrda O'zbekiston amaliy-bezak san'atining poydevori – badiiy hunarmandchilikni – uning sohalari asosida taraqqiyot yo'lini, jarayonni tahlil etish;
- naqsh bilan realistik tasvir masalasini ko'rib chiqish;
- muzey kolleksiyalarini shakllantirishda ilmiy ekspeditsiyalar faoliyatini tadqiq qilish;
- muzeylardagi kolleksiyalarni badiiy hunarmandchilik sohalari kesimida tahlil qilish;
- badiiy hunarmandchilikni muzeylarda ilmiy o'rganish muzei xodimlari faoliyatini o'rganish;

⁸ Кальтер Й. "Ўзбекистон – буюк ипак йўли вориси". Каталог. – Штутгард, Лондон, 1997. – 368 б.

⁹ Gibbon K.F., Hale A. Uzbek embroidery in the nomadic tradition. The Jack A. and Aviva Robinson Collection at the Minneapolis Institute of Arts. 2007. – P. 16-17.

¹⁰ Dombrovski G. Textiler Randverzierung in Turkestan // Baessler-Archiv. Beitrage zur Voelkerkunde. Band XXIV. – Berlin, 1976. – S.365-387.

- yirik ustalarning “ustoz-shogird” an’anaviy badiiy ta’limdagi faoliyatlarini ilmiy tadqiq qilish;
- ustalarning albom va chizmalarini o‘rganish.

Tadqiqotning ob’ekti – XX asrga oid O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini o‘rganilish tarixi, nazariy-metodologik masalalarni ko‘rib chiqish, O‘zbekiston muzeylarida amaliy-bezak san’ati bo‘yicha mavjud kolleksiyalarining shakllanish jarayonini o‘rganish belgilangan.

Tadqiqotning predmeti – Toshkentdagi O‘zbekiston davlat san’at muzeyi va O‘zbekiston amaliy san’ati va hunarmandchilik tarixi davlat muzeylarining zaxiralari, ekspozitsiya zallari, arxivlar, kutubxonalar, ustaxonalardagi badiiy hunarmandchilik ashyolari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining hunarmandchilik, amaliy-bezak san’ati, muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaragatilgan Farmon va Qarorlari, san’atshunoslik va muzeyshunoslik fanlarida keng qo‘llanilib kelinayotgan metodlar – qiyosiy solishtiruv va taqqoslash metodidan badiiy hunarmandchilik buyumlarining badiiy-estetik jihatlarini o‘rganishda, tizimlash metodidan badiiy hunarmandchilik namunalarini yilma-yil ko‘rib chiqishda va muzeylardagi kolleksiyalarni shakllantirishda, tarixiy rekonstruksiya metodidan – O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini tadrijiy rivojlanishidagi ayrim bo‘shliqlarini to‘ldirishda foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- san’atshunoslik fanida qo‘llanilib kelinayotgan “maktab-markaz”; “hunar-badiiy hunar-amaliy-bezak san’ati”; “badiiy hunarmandchilik ekologiyasi”; “ustoz-shogird” atamaları qayta ko‘rib chiqilib, muzeylarda saqlanayotgan ashyolarning hammasi ham “amaliy-bezak san’ati asari” atamasi talablariga to‘g‘ri kelmasligi, aksariyati badiiy hunar ashyosi ekanligi, XX asr materialini baholashda ayrim tadqiqotchilar tomonidan noto‘g‘ri metodologiya tanlangani, “an’ana” va “innovatsiya” atamaları aslida bir atama ekanligi, badiiy hunarmandchilikning sohalari muzeylarda va ayrim ilmiy nashrlarda noto‘g‘ri guruhlashtirilgani dalillangan;

- XX asrdagi O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligining asosiy bezagi – naqsh va tasvir masalasiga yangicha yondoshilib, “an’ana” iborasi ko‘p holatda “meros” atamasiga singdirib yuborilgani, oqibatda ma’lum davrlardagi yangi badiiy topilmalarga nisbatan “bachkana” (кнч) tamg‘asi bosilgani aniqlangan;

- XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirishda M.A.Andreyevning XX asrning boshidagi ekspeditsiya materiallari; S.M.Krukovskayaning O‘zbekiston Milliy arxividagi shaxsiy hujjatlari asosida O‘zbekiston davlat san’at muzeyida saqlanayotgan amaliy-bezak san’ati kolleksiyalarini yaratish va ko‘rgazmalardagi namoyishiga oid bilimlari ilk bor ilmiy muomilaga kiritilgan;

- muzeylarda omma e’tiboridan chetda qolib kelayotgan kolleksiyalarda saqlanayotgan Qo‘qon kandakorligi ustasi Lutfulla Fozilovning muzeyga kirim paytidan boshlab zaxirada saqlanib kelinayotgan albomi, O‘zbekiston davlat san’at

muzeyining “Qoliplar”, “Xalq naqshlari” kolleksiyasidagi boshqa ustalarning naqshlarning chizmalari, eskizlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligining ilmiy adabiyotlardagi metodologiyasi, ornamentlarning repertuari, ekologiyasi, ayrim sohalarning¹¹ 1930-yillargacha milliy madaniyatda turmush tarzining bo‘lagi sifatidagi roli va o‘rni, sovet davridagi internatsional madaniyat tizimidagi mavqeyi, Mustaqillik yillaridagi ahvoli bo‘yicha tizimlashgan kartinalardan biri yaratildi.

XX asrning an‘anaviy badiiy hunarmandchiligida, avvallari bo‘lgani kabi, 1) shahar madaniyati ta’sirini inkor qilmagan holda, “noan‘anaviy yo‘nalishni” (zamonaviy – Z.S.) bo‘y ko‘rsatishini, endilikda xalq ustalari bilan professional – oliy maktab ko‘rgan ustalarning yangi to‘lqini ijodi bo‘yicha yangilangan kartina yaratildi. Chunki, avvalgi tadqiqotlarda ularning ijodi, an‘anaviy ijod fonida, ikkinchi darajalidek ko‘rinar edi; 2) muallifning izlanishlari noan‘anaviy yo‘nalishlar, biron o‘n yilliklar davomida vaqt sinovidan o‘tgandan so‘ng, an‘anaviy ijodga aylanishi aniqlandi va ular endilikda ikki alohida yo‘nalish bo‘lmay, ikkovini bitta – an‘anaviy yo‘nalish deb qabul qilish bo‘yicha nazariya taklif qilindi.

XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi ko‘p muzeylarda “amaliy-bezak san’ati” namunasi sifatida e’tirof qilingani, aslida bundagi ko‘p ashyolarning badiiy saviyasi badiiy hunarmandchilik darajasida ekani, ularga nisbatan “amaliy-bezak san’ati” atamasi sovet davrida o‘ylab topilgan sun’iy atama ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, “amaliy-bezak san’ati” iborasi ayrim adabiyotlarda gohida “amaliy san’at”, gohida “bezak san’ati” deb ham noto‘g‘ri yozilgan ekan. Bu, bizningcha, metodologik xatolik. Shuning uchun galdagi tadqiqotlarda badiiy hunarmandchilikning eng yuqorigi saviyadagilarinigina “amaliy-bezak san’ati” ashyosi deyish mumkin. Qolgani – badiiy hunarmandchilikka kiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi – masala va muammoning aniq o‘rganilgani, dissertatsiya materiallari – muzeylarning kolleksiya ashyolari ekani; o‘rganilgan material – Arxiv hujjatlari ekani, muallifning shaxsiy ilmiy ekspeditsiyalarida qo‘lga kiritgan noyob ilmiy faktlar ekani, olingan natijalar ko‘plab Xalqaro va respublika ilmiy-nazariy-amaliy konferensiyalarida soha mutaxassislari orasida keng muhokama qilingani, O‘zR OAK tan olgan ilmiy jurnallarda nashr qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mavzu yuzasidan olib boriladigan galdagi ilmiy-tadqiqotlarga tayanch bo‘ladi; turdosh Oliy, o‘rta-maxsus bilim yurtida o‘qitiladigan “O‘zbekiston amaliy-bezak san’ati” fanidan talabalarga bilim berishda foydali bo‘ladi; kolleksiyalarida XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchilik ashyolari bor muzeylar fondini tizimlashda, ekspozitsiyalarini ilmiy reja asosida shakllantirishda foydali bo‘ladi; o‘zbek xalqining milliy boyligini respublika va Xalqaro maydonda targ‘ib qilishda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

¹¹ Dissertatsiyada O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligining hamma sohasini matnni belgilangan hajmdan ko‘payib ketishi munosabati bilan qamrab bo‘lmadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – zamonaviy jarayonda ijod qilayotgan ustalarga, badiiy hunarmandchilikning sohalari bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak yoshlarga, muzeylarning ilmiy xodimlariga, ilmiy mezonlar asosida kolleksiyalar yaratishda metodik qo'llanma bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: XX asr O'zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirish mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

san'atshunoslik fanida qo'llanilib kelinayotgan “maktab-markaz”; “hunar-badiiy hunar-amaliy-bezak san'ati”; “badiiy hunarmandchilik ekologiyasi”; “ustoz-shogird” atamaları qayta ko'rib chiqilib, muzeylarda saqlanayotgan ashyolarning hammasi ham “amaliy-bezak san'ati asari” atamasi talablariga to'g'ri kelmasligi, aksariyati badiiy hunar ashyosi ekanligi, XX asr materialini baholashda ayrim tadqiqotchilar tomonidan noto'g'ri metodologiya tanlangani, “an'ana” va “innovatsiya” atamaları aslida bir atama ekanligi, badiiy hunarmandchilikning sohalari muzeylarda va ayrim ilmiy nashrlarda noto'g'ri guruhlashtirilgani dalillanganligi hamda XX asrdagi O'zbekiston badiiy hunarmandchiligining asosiy bezagi – naqsh va tasvir masalasiga yangicha yondoshilib, “an'ana” iborasi ko'p holatda “meros” atamasiga singdirib yuborilgani, oqibatda ma'lum davrlardagi yangi badiiy topilmalarga nisbatan “bachkana” (кич) tamg'asi bosilgani aniqlanganligi yuzasidan takliflardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston tarixi” telekanali “Taqqimot” ko'rsatuvida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 19-sentabrdagi 02-31-1531-son dalolatnomasi). Ilmiy natija badiiy hunarmandchilik san'atini asrab avaylash, shunidek muzeyga tashrif buyuruvchilarning boy tariximizga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qilmoqda.

XX asr O'zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirishda M.A.Andreyevning XX asrning boshidagi ekspeditsiya materiallari; S.M.Krukovskayaning O'zbekiston Milliy arxividagi shaxsiy hujjatlari asosida O'zbekiston davlat san'at muzeyida saqlanayotgan amaliy-bezak san'ati kolleksiyalarini yaratish va ko'rgazmalardagi namoyishiga oid bilimlari ilk bor ilmiy muomilaga kiritilganligi hamda muzeylarda omma e'tiboridan chetda qolib kelayotgan kolleksiyalarda saqlanayotgan Qo'qon kandakorligi ustasi Lutfulla Fozilovning muzeyga kirim paytidan boshlab zaxirada saqlanib kelinayotgan albomi, O'zbekiston davlat san'at muzeyining “Qoliplar”, “Xalq naqshlari” kolleksiyasidagi boshqa ustalarning naqshlarning chizmalari, eskizlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilganligi yuzasidan takliflar O'zbekiston Badiiy akademiyasining III Toshkent Xalqaro amaliy san'at biennalesi doirasida o'tkazilgan “Zamonaviy amaliy-bezak san'ati: dekor va uslub” deb nomlangan ko'rgazma ekspozitsiyasining ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Badiiy akademiyasining 2022-yil 16-sentabrdagi QB04567484-son dalolatnomasi). Ilmiy natija faktik materiallar va ko'rgazma ekspozitsiyasini takomillashtirish uning mazmun mohiyatini ilmiy boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining “San'at tarixi va nazariyasi”,

“Muzeyshunoslik” kafedralarining qo‘shma ilmiy seminarlarida, majlislarida, 5 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mavzu bo‘yicha umumiy 14 ta ilmiy ish nashr qilingan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha PhD doktorlik dissertatsiyasi talabgorlari uchun belgilab qo‘ygan jurnallarda 6 ta, xorijiy jurnalda 1 ta ilmiy maqola chop qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob sakkizta bo‘lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, qisqartmalar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ilovasiz umumiy hajmi 152 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda mavzusining dolzarbligi va zarurati, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, o‘rganilganlik darajasi, Dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsad va vazifalari, ob‘ekti, predmeti, metodologiyasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining joriy qilinishi, aprobeziyasi, natijalarining e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

“O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari” nomli birinchi bob 2 bo‘limdan iborat: 1. Badiiy hunarmandchilikni o‘rganishdagi metodologik yondoshuvlar; 2. Badiiy hunarmandchilikning nazariy masalalari.

Bizdan avvalgi avtorlar tadqiqotlarini 1) xorijlik olimlarning, 2) sovet (rossiyalik) olimlarining, 3) o‘zbekistonlik olimlarning ishlari asosida tahlil qilishgan. Bizningcha bu metodologiya eskirgan. Shuning uchun biz bu nashrlarni XX asr mobaynida o‘n yilliklar kesimida, tarixiy rivojlanish prinsipi asosida ko‘rib chiqdik. Nazarimizda aynan shu uslubda mavzu qaysi yillarda qaysi olim tomonidan qay rakursda o‘rganilgani ayon bo‘ladi.

1920-30-yillarda B.P.Denike tomonidan sovet san‘atshunosligida ilk bor Sharq musulmon san‘atiga bag‘ishlangan monografiya chop qilindi¹². Mazkur kitobda musulmon miniatyurasining fors, hind, turk, arab-mesopotamiya maktablari; amaliy-bezak san‘ati (metalsozlik, gazlama, gilam); shuningdek, me‘morchilik haqida fikr bildirilgan.

V.N.Chepelev kitobining¹³ “Milliy badiiy meros haqida” nomli 1-bobida XV asrdagi Samarqandning me‘moriy koshinlari, ganchga chizilgan naqshlar, ro‘zg‘orbop sopol idishlar ko‘rilgan; bizga ma‘quli, – avtor ularni “amaliy-bezak san‘ati asari” deb ta‘riflamaydi. Aksincha, badiiy hunar buyumi ekanini e‘tirof qiladi.

Bu kezlari O‘zbekistonda kashtachilikni etnografik nuqtai nazardan o‘rganish

¹² Денике Б.П. Искусство Востока. Очерк истории мусульманского искусства. – Казан, 1923.

¹³ Чепелев В.Н. Искусство Советского Узбекистана. Под ред. Ос.М. Бескина. – Л., 1935.

O.A.Suxareva tadqiqotlaridan boshlandi¹⁴. 1940-50-yillarda M.A.Bikjanova Toshkent kashtalari tiplarini ko‘rib chiqqan¹⁵. 50-yillarda B.V.Veymarnning¹⁶, B.X.Karmishevaning¹⁷, Ye.M.Pesherovaning¹⁸ qimmatli ilmiy tadqiqotlari ham dunyo yuzini ko‘rdi. A.S.Morozovaning Xiva naqqoshligining tuzilishiga bag‘ishlangan kitobi¹⁹ – O‘zbekiston naqqoshlik san‘atini o‘rganishda muhim qadam bo‘ldi. Avvalgi tadqiqotlarda naqqoshlik san‘ati – maktablar va markazlar kesimida umumiy ko‘rib chiqilgan edi.

1960-yillarda I.Pritsa va I.I.Notkinning ilmiy tadqiqotlari nashr qilindi²⁰. Aynan shu nashrlar olimlarga O‘zbekiston xalq amaliy-bezak san‘atini yaxlit tadqiqot sifatida ko‘rib chiqishga zamin hozirlagan. I.I.Notkin ilk bor buxorolik Usta Sh.Murodov ijodini o‘rgandi²¹, N.A.Avedova yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha 1970-yilda nomzodlik dissertatsiyani yoqladi²². M.S.Morozova kashtachilikning asosiy markazlari, chevarlarning ijodlari, naqshlarning turi va ma‘nolariga to‘xtaldi²³.

XX asr kulolchiligi bo‘yicha ko‘plab nashrlar bor. Lekin ular orasidagi fundamental tadqiqot – toshkentlik usta, san‘atshunoslik fanlari nomzodi M.K.Rahimovning tadqiqoti²⁴.

1960-yillarning boshqa muhim tadqiqoti – G.L.Chepeleveskayaning kitobi. Unda ilk bor so‘zana alohida tadqiqot ob‘ekti sifatida, maktablari va markazlari kesimida o‘rganildi²⁵.

1970-yillarda A.S.Morozova va V.G.Moshkovaning gilamlarga bag‘ishlangan ilmiy ishida O‘rta Osiyo gilamlari etnoslar kesimida, tiplarga bo‘lingan yondoshuv asosida o‘rganilgan²⁶.

T.A.Abdullayevning tadqiqotlari, masalan, 1974-yili nashr qilgan²⁷ kitobi, haqli ravishda kandakorlikdagi ilk izlanish bo‘ldi.

Bu yillarda muzey kolleksiyalari, xususan, zargarlik kolleksiyasini tadqiq qilishga ham jadal kirishildi. D.A.Faxretdinovanning monografiyasida²⁸ O‘zbekiston zargarlik san‘atining ko‘p asrlik rivojlanish tarixi, uslublari, tarixiy davrning estetik-g‘oyaviy tamoyillari kesimida, moddiy-ma‘naviy madaniyat bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

¹⁴ Сухарева О.А. К истории самаркандской декоративной вышивки. Кн. 6. – Т., 1937.

¹⁵ Бикжанова М.А. Ташкентская вышивка. – Т., 1948.

¹⁶ Веймарн Б.В. Изучение орнамента Хивы XIV–XIX вв. // КСИИМК, вып. XXVIII. – Т., 1949.

¹⁷ Кармышева Б.Х. Узбеки локайцы Южного Туркменистана. Вып.1. – Сталинабад, 1954.

¹⁸ Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. – М.–Л., 1959.

¹⁹ Морозова А.С. Хивинский узор (на примере творчества Абдуллы Балтаева). – Т., 1957.

²⁰ Прица И. Тошкент ганчкорлиги (Халқ устаси Тошпўлат Арслонқуловнинг ганчоклик ишлари). – Т., 1960; Ноткин И.И. Бухарская резьба по ганчу (на примере творчества Ширина Мурадова). – Т., 1961.

²¹ Ноткин И.И. Бухарская резьба по ганчу в работах Усто Мумина Мурадова. Научная редакция Л.И.Ремпеля. – Т., 1960.

²² Аведова Н.А. Резьба по дереву в Узбекистане (творчество народных мастеров XIX – XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Т., 1970.

²³ Морозова А.С. Локальные черты в народном декоративном искусстве Узбекистана. – М., 1964.

²⁴ Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Т., 1961.

²⁵ Чепелевецкая Г.Л. Сузани Узбекистана. – Т., 1961.

²⁶ Морозова А.С. Ковры народов Средней Азии конца XIX–начала XX вв. Материалы экспедиции 1929–45 гг. – Т., 1970; Мошкова А.Г. Ковры Средней Азии. – Ташкент, 1970.

²⁷ Абдуллаев Т.А. XIX–XX аср ўзбек кандакорлиги. – Т., 1974.

²⁸ Фахретдинова Д.А. Декоративно–прикладное искусство Узбекистана. – Т., 1972.

70-yillardagi nashrlar orasida qator nazariy tadqiqotlar bor (P.G.Bogatiryov²⁹, V.S.Voronov³⁰, V.M.Vasilenko³¹, A.S.Kantsedikas³², T.S. Semyonova³³).

P.G.Bogatiryov, masalan, xalq amaliy-bezak san'atini XVII-XX asrlardagi rus, ukrain, slavyan xalqlarini, so'ng, SSSR tarkibidagi boshqa qardosh xalqlar badiiy ijodini – katta ijtimoiy va badiiy hodisa sifatida e'tirof qilgan. V.S.Voronov, Rossiya san'atshunosligida ilk bor qishloq badiiy madaniyati – xalq ijodiyotining o'zani ekanini ta'kidlaydi.

1980-yillarda P.A.Goncharova³⁴, D.A.Faxretdinovanning³⁵ tadqiqotlari nashr qilindi. Ikkala nashr xalq amaliy-bezak san'atining ikki sohasi tarixi, naqshlarning tuzilishi, ma'nosi, ustalar ijodi, texnik usullari, xomashyosi haqidagi bilimlarimizni oshiradi.

O'zbek xalq amaliy-bezak san'ati sohalari orasida, naqqoshlik, alohida tadqiqot mavzusi sifatida, kam o'rganilgan. L.I.Rempelning³⁶, I.M.Azimovning³⁷ albomi shu mavzuga bag'ishlanib, birinchisida, me'morlik naqshlarining asrlar osha genezisi o'rganilgan. Ikkinchisi, shu ishning mantiqiy davomi bo'lib, e'tibor XIX-XX asrdagi diniy va dunyoviy binolarning bezaklariga qaratilgan. Bu yillarda nazariy nashrlar – M.A.Nekrasova³⁸, T.Razina³⁹, A.A.Hakimovning⁴⁰ tadqiqotlari biz uchun nihoyatda muhim bo'ldiki, birinchi avtor 1965-yili himoya qilgan nomzodlik dissertatsiyasidan⁴¹ boshlab, 1985-yili yoqlangan “Народное искусство как часть культуры: теория и практика” nomli doktorlik dissertatsiyasida, yana boshqa ko'plab ilmiy ishlarida, sohaning nazariy masalalarini, xususan amaliy-bezak san'atini kishilik jamiyatidagi o'rni va rolini tushuntirib bergan. Bizni qiziqtirgani – agar avvalgi avlod olimlari badiiy hunarmandchilikka xalq ijodiyotining tomosha, raqs, xalq og'zaki ijodi bilan bir butun yaxlit tizim sifatida qarashgan bo'lsa, M.Nekrasova badiiy hunarga “inson-tabiat-madaniyat” modelidan kelib chiqib, kengroq yondoshadi va jamiyatning xalq san'ati to'rt ko'rinishda rivojlanishi mumkinligini ta'kidlaydi: 1) etnosning kundalik turmushi bilan bog'liq ashyolarni yaratish; 2) jamoa bo'lib ijod qilish; 3) yakka tartibdagi ustalar ijodi; 4) ustaxonalarga jipslashib ijod qilish⁴².

²⁹ Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. – М., 1971.

³⁰ Воронов В.С. О крестьянском искусстве. Избранные труды. – М., 1972.

³¹ Василенко В.М. Народное искусство. Избранные труды о народном творчестве X–XX вв. – М., 1974.

³² Канцедикас А.С. Искусство и ремесло: к вопросу о природе народного искусства. – М., 1977.

³³ Семенова Т.С. Народное искусство и его проблемы. – М., 1977.

³⁴ Гончарова П.А. Золотошвейное искусство Бухары. – Т., 1986.

³⁵ Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Т., 1989.

³⁶ Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построения. – Т., 1961.

³⁷ Азимов И.М. Ўзбекистон нақшу–нигорлари. – Т., 1987.

³⁸ Некрасова М.А. Современное народное искусство. По материалам выставок 1977–1978 гг. – Л., 1980; М.А.Некрасова. Народное искусство как часть культуры: теория и практика. – М., 1983; М.А.Некрасова. Палеховская миниатюра. – Л., 1983.

³⁹ Разина Т.М. О профессионализме народного искусства. Специфика прикладного искусства. Эстетическая природа ремесла. – М., 1985.

⁴⁰ Hakimov A.A. Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиции и новаторства). – Т., 1988; Hakimov A.A. Современная декоративная пластика республик Средней Азии. – Т., 1992; Hakimov A.A., Fayziyeva V.S. Ўзбекистон давлат санъат музейи ноёб хазинасидан. – Т., 2014.

⁴¹ Некрасова М.А. Искусство Палеха (основные принципы палеховской живописи как народного и декоративного искусства). Автореф.канд.дисс. – М., 1965.

⁴² Некрасова М.А. Народное искусство как часть культуры: теория и практика. – М., 1983.

O‘zbekiston san‘atshunosligida A.Hakimov amaliy-bezak san‘ati tarixini o‘rganish barobarida zamonaviy (noan‘anaviy) ijodni ham o‘rgandi⁴³, O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi Atlasini yaratdi⁴⁴, ilk marta YUNESKO ko‘magida respublika xalq ustalari yarmarkasini o‘tkazib, mustaqillik yillarida respublikaning turli hududlariga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirdi. Muzeylardagi badiiy hunarmandchilikka oid kataloglarni nashr qildi⁴⁵.

Mustaqillik yillari badiiy hunarmandchiligi bilan nafaqat san‘atshunoslar⁴⁶, balki tarixchilar⁴⁷ ham shug‘ullanishdi. Nazarimizda, ularda 1) “badiiy hunarmandchilik”, - “hunarmandchilik” atamasiga singib ketgan; 2) ayrim san‘atshunoslik tadqiqotlarida esa “amaliy-bezak san‘ati” iborasi” yoki “amaliy san‘at” (прикладное искусство) deyilgan⁴⁸, yoki “dekorativ san‘at” (декоративное искусство)⁴⁹ deyilgan. Bizningcha, bunisi ham, unisi ham metodologik xatolik. Tahlilimiz ikki ibora mazmunan boshqa-boshqa ekanligini ko‘rsatdi. Bizningcha, avtorlar yuqoridagi ikki iborani ikki maqsadda: 1) bezak uchun; 2) ashyoni turmushdagi amaliy vazifasini bildirish uchun qo‘llashgan. Lekin har ikkala vaziyatda ularni bir-biridan ajratmay bir ibora - “amaliy-bezak san‘ati” deb, “amaliy” bilan “bezak” so‘zlari chiziqcha bilan yozilsa, nazariyada tartibsizliklarni oldi olinardi.

Ashyo, agarda bezak bo‘lmasa, – amaliy ahamiyat kasb etadi. Antiqa usulda naqsh (tasvir) bilan bezalsa, yoki qimmatbaho tosh qadalsa, – badiiy ijod (bezak) namunasi sanaladi. Ikkalasini birlashishidan “amaliy-bezak san‘ati” hosil bo‘ladi.

Lekin, amaliyotning nozik jihatlari borki, masalan, yog‘och o‘makorligidagi sovg‘a ko‘rinishidagi, devorga ilib qo‘yiladigan laganlarda, hoshiyaga o‘yma beriladi, o‘rtasiga realistik tasvir, yoki naqsh, yoki miniatyura chiziladi. Ashyoning shakli – lagan ko‘rinishida. Lekin uni shu turishida ro‘zg‘orda ishlatib bo‘lmaydi;

⁴³ Хакимов А.А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии. – Т., 1988.

⁴⁴ Хакимов А.А., Гюль Э.Ф. Байсун. Атлас художественных ремёсел. – Т., 2006.

⁴⁵ Хакимов А.А. Самарқанд тўпламлари. – Т., 2019. – 237 б.

⁴⁶ Абдуллаев Т.А., Хакимов А.А., Фахретдинова Д.А. Маъданга битилган кўшик. – Т., 1986; Фатхуллаев Р. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистон амалий-безак санъатидаги тасвирий мавзулар. Сан.фан.номз.дисс. – Т., 2000; Гюль Э. Проблема этнокультурных взаимодействий в античном и средневековом искусстве Узбекистана. Автореф.док.дисс. – Т., 2002; Алиева С. XI–XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадий хусусиятлари. Сан.фан.док.дисс. – Т., 2018; Жумаев К. Бухарская традиционная вышивка конца XIX – начала XX века: Автореф. канд.дисс. – Т., 2003; Насирова З. XX аср - XXI аср бошлари Ўзбекистон жанубий худудларининг анъанавий каштачилиги. Сан.фан.ном.дисс. – Т., 2011.

⁴⁷ Фарманова Б.А. Ремесленное производство в Ферганской долине во второй половине XIX–начале XX в. Автореф. канд.дисс. – Т., 1995; Қиличев Р.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошида Бухоро шаҳрида хунармандчилик ва савдо. Тарих.фан.номз.дисс.автореф. – Т., 1997; Агзамова Г.А. Ўрта Осиё хонликларида хунармандчилик ва савдо. Тарих.фан.док.дисс.автореф. – Т., 2000; Жумаев Қ.Ж. бошларида Бухоронинг анъанавий каштадўзлик санъати. Санъат.фан.ном.дисс. – Т., 2003; Гайбуллаева Ю.А. Ўзбек аёлларининг миллий кийимлари тарихи (XIX–XX асрлар). Тарих.фан.ном.дисс.автореф. – Т., 2017; 44. Давлатова С. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий худудлари мисолида) тарихий-этнологик тадқиқот. – Т., 2018; Давлатова С. Ўзбек кийимлари атамалари изоҳли луғати. – Т., 2017.

⁴⁸ Хакимов А. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. Вышивка, керамика, торовтика. – Т., 2013; Бинафша Нодир. Ўзбекистон амалий санъати: анъаналар давомийлиги. – Т., 2021.

⁴⁹ Moskva da 1957 yildan chiqadigan «Декоративное искусство» jurnali; Сухарева О. Вышивка. Народное декоративное искусство советского Узбекистана. – Т., 1954; Советское декоративное искусство, 1917-1945. – М., 1984; Хакимов А.А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиции и новаторства). – Т., 1988.

u xonani bezashga mo'ljallangan. Shu turishida "bezak". Lekin shakli ro'zg'or laganinikidan olingani bois, garchi amaliy jihati bo'lmas-da, "amaliy-bezak san'ati" iborasiga mos keladi.

Badiiy hunarmandchilikda "an'ana" iborasi bezakka, ma'noga, uslubga, xomashyoga, mahoratga nisbatan ishlatiladi. XX asr an'analari o'tmishdagilari bilan bog'liq. O'tmishda esa O'zbekiston hududda ko'p davlatlar bo'lgan. Vaqt davomida ularning geografiyasi o'zgarib turgan. Masalan, XIX asrdagi xaritada Xiva xonligi hududiga hozirgi Turkmaniston, Buxoro xonligi hududiga hozirgi Tojikiston, Qo'qon xonligi hududiga hozirgi Qirg'iziston yerlarining ayrim qismi kirgan. Afsuski, sovet davrida tashkil topgan bu respublikalar xonliklar san'atini o'zining milliy san'atining ildizi sifatida tan olmaydi. Bu xalq badiiy hunarmandchiligi davrlar mobaynida ustma-ust paydo bo'lgan madaniy qatlamlar bilan har vaqt ham to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmasligini ko'rsatadi.

Bir davlat siyosiy maydondan ketib, o'rniga boshqasi kelgan taqdirda ham, yangi tizim badiiy ta'limni, maktabni bir zumda barpo qilolmaydi. Bunga vaqt kerak va bu jarayonda yangi madaniyat albatta o'zidan avvalgi madaniyatdan o'zi uchun kerakli tasvir va ornamentlarni tanlab oladi va yangi zamonda o'zini ham shaklan, ham mazmunan saqlab qoladi.

Bunda teskari nazariya ham borki, unga ko'ra, shakl o'ziga singdirgan ma'no bilan bir davrdan ikkinchisiga o'tayotganda shakli qolib, faqat ma'nosi o'zgarishi mumkin. Yoki, aksincha, ma'no yangi shaklga ko'chishi mumkin. Shu yo'l bilan motiv o'zini yangi davrga moslaydi. Masalan, "anor" naqshi ikki ko'rinishda – 1) realistik; 2) o'zini emas, gulini ko'ramiz. Ikkala ko'rinishda tasvir o'ziga bir necha ma'nolarni singdiradi: 1) sevgi; 2) oila; 3) ko'pfarzandlik; 4) to'kinchilik v.b. Agar motiv XX asr boshida shu ma'nolarda ko'zga tashlangan bo'lsa, asrning ikkinchi yarmidan dolzarbligini yo'qotib,⁵⁰ oddiy bezakka aylangan.

Mustaqillik davri xalq hunarmandchiligining ayrim sohalariga nisbatan "innovatsiya" iborasi qo'llanilmoqda⁵¹. Avtorlar "innovatsion ijod" deganda, avvalgidek ijodni emas, tadbirkor, menedjer, san'atshunos va hunarmandlardan tashkil topgan guruhning yangicha (zamonaviy) faoliyatini nazarda tutadilar. "Innovatsiya" so'zi – lotincha yangilanish ma'nosini bildiradi. Yuqoridagi "an'ana"ni, o'zini na shaklan, na mazmunan o'zgartiruvchi "meros"dan farqli o'laroq, har zamonga moslanuvchi ma'naviy qadriyatlar jipslashuvidan hosil bo'ladigan tirik ma'naviy organizm deb qabul qilgan bo'lsak, "innovatsiya" – aynan shu organizmning bo'ladi. "An'ana" va "innovatsiya" so'zlarining ma'nosini boshqa-boshqa deb emas, bir deb tushunsak – maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

XX asr madaniyatida "yakka ijod – jamoaviy ijod – konveyer ijod" masalasi ham e'tiborimizdan chetda qolmadi. Chunki, xalq badiiy hunarmandchiligida har vaqt yakka ijod bo'lmagan. Jarayonda ikkinchi, yoki uchinchi shaxsni qatnashishi

⁵⁰ Sa'dullayeva Z.R. O'zbekiston zamonaviy badiiy hunarmandchiligining ayrim masalalari. Monografiya. – T., 2021. – 364–365 b.

⁵¹ Ҳақимов А.А., Носирова З.Н. Ўзбекистон каштачилигидаги янги тамойиллар. // Ж. SAN'AT. – Т., 2012. – №2. – Б.15; Хайитбобоева Х.П. Мустақиллик даври Ўзбекистон амалий санъатида анъана ва инновация. Сан.фан.фал.док. дисс.автореф. – Т., 2022.

mumkin bo'lgan.

Konveyer ijod – bu zavod-fabrikalardagi ish jarayoni; mahsulot tannarxini paysaytirish, ishlab chiqarish sifatini ko'tarish maqsadidagi usul. Masalan, Toshkent chinni zavodida buyumlarning eskizi avval zavod rassomlari tomonidan yaratilgan. Metodik kengash tasdig'idan o'tgandan keyin, ashyo tegishli sexlarga ishlab chiqarishga topshirilgan.

Navbatdagi masala – imlo. XX asrda o'zbek xalqining yozuvi arab imlosidan – lotinga; 1939-yilda kirillga; 1993-yilda yana lotinga o'tkazildi. Kashta, kandakorlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, yog'och va ganch o'ymakorligida kirill va arab imlosidagi yozuvlarni ko'rdik. Lekin 1993-yildan boshlab⁵², rasman yana lotinga o'tildi. Afsuski, lotin yozuvi xattotlar (ustalar) tomonidan hanuz badiiy ijodning imlosiga aylantirilmadi. 2021-yilda ikkinchi qaror qabul qilindi⁵³. Vaziyat esa o'sha-o'sha.

Dissertatsiyada obraz masalasiga ham to'xtaldik. Chunki, obraz – tevarak-atrofnig naqshlardagi (bezaklardagi) stilizatsiyalashgan ko'rinishi, badiiy ijodning asosiy ifoda vositasi.

Sovet davrida sotsialistik jamiyatning ramzlari (o'roq-bolg'a, besh qirrali yulduz, turli chaqirik va shiorlar (lotinda va kirill imlosida matnda yozilgan), syujetli tematik sahnalar, mehnat va jamiyatdagi ilg'or arboblarning portretlari yaratildi.

Mustaqillik yillarida obrazlar tizimi avvalgi andozalarini saqlab qoldi. Lekin biroz o'zgardi. Masalan, “paxtaguli” naqshi, dohiy va jamoat arboblarning portretlari sovet yillaridagi dolzarbligini yo'qotdi.

Dissertatsiyaning **“XX asrda O'zbekiston badiiy hunarmandchiligining rivojlanish omillari”** nomli ikkinchi bobi 3 bo'limdan iborat: 1. An'anaviy badiiy hunarmandchilik sohalarining baynalminal davrdagi taqdiri; 2. “Badiiy hunarmandchilik” va “Amaliy-bezak san'ati” dialogi; 3. An'anaviy badiiy hunarmandchilik – shahar madaniyatining tarkibiy qismi sifatida.

Bobda XX asrdagi barcha hunarlar o'rganilmaydi. 3 ta bo'limdagi vazifalarni ado qilishda dalil sifatida keltiriladi. Bular – kulolchilik, xalq o'yinchoqlari, badiiy chinni, kandakorlik, zargarlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, yog'och naqqoshligi, toshqog'oz naqqoshligi va lak miniatyurasi, gilamdo'zlik, milliy matolar, zardo'zlik.

XX asrda O'zbekiston hududida badiiy bezash usuli, plastik va texnologik belgilari bo'yicha uchta asosiy “maktablar” qayd qilingan. Maktab so'zini qo'shtirnoqda shartli qo'llayapmiz. Sababi – yuqoridagi markazlarning ayrimlari aslida maktab bo'lgan. XX asrning 80-yillaridan badiiy madaniyatda shaharning o'rni kuchayib, qishloqdagi maktabga katta ta'sir ko'rsatgan. Ilmiy adabiyotlarda

⁵² “O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida”gi Qonun. 21 oktyabr, 1989 yil. №3561–XI // O'zbekiston Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T., 1989. – №26–28. – 453–modda (<https://www.lex.uz/acts/109394>); “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida” Qonun. 2 sentyabr, 1993 yil. №931–XII // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9–son, 331–modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 6–son, 119–modda (<https://lex.uz/docs/112286>).

⁵³ O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 10.02.2021 yildagi “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma–bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora–tadbirlari” to'g'risidagi 61–sonli qarori.

sovet davri – san’atda tushkunlik davri deyiladi. Biz bunga qarshimiz. Aynan sovet davrida ustaning jamiyatdagi mavqei ko‘tarilgan.

XX asrda kulollar arxitektura koshinlarini yaratish bilan birgalikda ro‘zg‘or buyumlarini ham yasashgan. Kulolchilik – butkul texnologiyaga bog‘liq jarayon. Muzeylar kolleksiyalaridagi namunalarni o‘rganib, xulosa qilish mumkinki, har bir davrning kulollari o‘z jamiyatlarining talablari asosida ijod qilishgan. Lekin tashqaridan qaraganda bir makonga taalluqlidek bo‘lib ko‘ringan ashyolar har vaqt ham shu maktabning andozalariga yaqin bo‘lavermas ekan. Masalan, G‘urumsaroy kulolchiligi, garchi bu qishloq (hozir shahar), Namangan viloyatining Pop tumaniga qarashli bo‘lsa-da, buyumlarning shakli, koloriti, ko‘chmanchilarning madaniyatga xos yirik, dag‘al naqshlarga yaqin; u Farg‘ona viloyatining boshqa kulolchilik markazlarinikidan tubdan ajralib turadi (H.Satimov, V.Buvayev v.b.).

XIX asr oxiriga borib Toshkentda kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish – Rossiyadan keltirilgan fabrika mahsulotlarining raqobati sabab, keskin kamaygan; borlarini sifati tushib ketgan.

Zamonaviy (noan‘anaviy) yo‘nalishda ijod qilgan ustalar ham bor: S.Rakova, M.Rahimov, A.Kedrin, X.Xaqberdiyev, S.Smirnov, N.Qo‘ziyeva, O.Sayfullayev v.b.

Sopol o‘yinchoqlarni yasash Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabiga xos. Eng mashhur markaz Vobkent yaqinidagi Uba qishlog‘i⁵⁴. O‘yinchoqlarni ishlab chiqarishning navbatdagi markazi – Kasbi qishlog‘i. U yerda g‘ildirakli qushchalar va jonivor ko‘rinishidagi o‘yinchoqlar yaratilgan. Denovda aka-ukalar Badal va Rasul Zuhurovlar bu maktab uchun odatiy yashil aralash jigarrang-sariq sopol bilan bir qatorda tanasi och ko‘k sir bilan qoplangan qush, hayvon ko‘rinishidagi o‘yinchoq-hushtakchalarni yasagan⁵⁵. Samarqandlik U.Jo‘raqulov olib kirgan va keyinchalik A.Muhtorovning va uning oila a‘zolari ijodida davom etgan syujetli haykalchalar – sovet davridagi o‘zbek tematik sahnali kulolchiligida yangilik bo‘ldi. Ular tasviriy san’at ta’sirida yaratilgan.

Yog‘och o‘ynakorligida Xiva maktabida Polvonovlar sulolasi mashhur bo‘lgan. Ular XIX – XX asr boshida ko‘plab o‘yma ustun va eshiklarni yasashgan.

Yog‘och o‘ymakorligining ikkinchi markazi – Toshkent. Bu yerda inshootlardan tashqari maishiy buyumlarni ham o‘ymalar bilan bezashdan. Asosiy xaridor – poytaxtdagi rusiyzabon boy aholi bo‘lgan. Ko‘p qirrali dekorativ xontaxta, quticha va boshqa buyumlar “pargor” usulidagi nafis mayda o‘ymalar xonalarga sharqona husn berib turgan.

Qo‘qon o‘ymakorlaridan H.Najmiddinov, Q.Haydarovlar o‘z davrida mashhur bo‘lgan. Ular yong‘oq, chinordan yasalgan milliy buyumlar bilan birga yevropacha mebellarni ham bezagan.

Yog‘och naqqoshligida mahalliy bo‘yoqlar bilan birga XIX asr oxiri – XX asr boshida O‘rta Osiyoga chetdan keltirilgan bo‘yoqlar, xususan, ko‘k rangli lojuvard bo‘yog‘i keng tarqalgan. 1920-dan-1980-yillargacha bo‘lgan davrda shahar va tuman markazlaridagi yangi qurilishlarda, eskilarini ta’mirlashda naqqoshlikka

⁵⁴ Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Т., 1972. – С.141.

⁵⁵ Акилова К. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана: XX век. – Т., 2005. – С.90.

talab ortgan. XX asrda Y.Raufov, A.Boltayev, M.Narqo‘ziyev, O.Qosimjonov, A.Azizov, J.Hakimov, T.Ahmedovlar mashhur bo‘lib, ulardan Y.Raufov bilan O.Qosimjonov an‘anaviy ornamental kompozitsiyalarni yangilari – sujetli tasvir va yozuv bilan uyg‘unlashtirishgan. J.Hakimov devor yuzasini vertikal silliq rax (tyaga) bilan alohida bo‘laklarga ajratib, naqsh chizsa, T.To‘xtaxo‘jayevning naqshlari nafisligi va koloriti bilan ajralib turgan.

1980-yillarda ayrim hunarlarni tiklashga kirishildi. “Usto” uyushmasi qoshida Toshkent naqqoshlik tajriba ilmiy-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil qilingan. Maqsad – o‘rta asrlardagi kitobat miniatyurasi an‘analarini yangi zamonda toshqog‘ozda tiklash edi⁵⁶. Shu maqsadda Toshkentda Respublika badiiy o‘quv yurtida “Lak miniatyurasi” bo‘limi ham ochiladi.

Sh.Muhammadjonov 1980-yillarda O‘zbekiston lak miniatyurasini tiklashda jonbozlik ko‘rsatgan. Uning ijodiy izlanishlari an‘anaviy va zamonaviy ohanglarni bir-biriga uyg‘unligi bilan ajralib turgan; N.Holmatovning badiiy-ifoda vositalariga tasvirning aniqligi, mumtoz sahnalarga zamonaviy yondoshuv; G‘.Kamolovning toshqog‘ozdan yasalgan zamonaviy ashyolarga bezak berishi; T.Boltaboyevni tematikada xalq rivoyatlari, afsonalari, o‘zbek mumtoz she‘riyatiga urg‘u berishi; X.Nazirov Hofiz, Xorazmiy singari o‘zbek mumtoz g‘azallaridagi syujetlardan ilhomlanishi bilan ajralib turadi.

1990-yillarda lak miniatyurasi ancha rivojlandi. Toshkent peshqadamlikni saqlab qoldi. Miniatyurachilarning safi kengayadi: Sh.Shoahmedov, M.Po‘latov, K.Mirzayev, A.Isroilov, J.Ashrapov, B.Nizomqoriyev.

Gilamdo‘zlik asosan chorvachilik bilan bog‘liq hunar. Azaldan Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Buxoro, Amudaryo etaklarida rivojlangan. 1920-yillari gilamdo‘zlik inqirozga uchrab, 1930-yillarda davlat darajasida tiklashga kirishilgan. Xivada “Umid” arteli, Samarqandda “Ayol mehnati” (Труд женщин), Andijonda “Mehnat”, Shahrisabzda “Hujum”, Termizda “Yurt”⁵⁷, shuningdek Qarshi va Xo‘jaylida shunga o‘xshash artellar tuzilgan. 1930-yillarning ikkinchi yarmida sujetli va portretli gilamlarni yaratishga urinib ko‘rildi. Biroq, gilamdo‘zlik va paloschilikning azaliy an‘analari, texnik usullari saqlab qolindi.

Milliy matolarga kelsak, bu hunar XIX asr 2-yarmida eng rivojlangan hunar bo‘lgan. Buxoro, Namangan, Marg‘ilon, Samarqand, Shahrisabz, Kitob, Qarshi, Xo‘jand, Urgut, Xiva – asosiy markazlar edi. XX asr boshida hunarmandlar yoki ustaxonalarida, yoki artellarda (fabrika) faoliyat ko‘rsatishgan. 1920-yilda fabrika gazlamasini yetishmovchiligidan uy sharoitida ipak matolarni to‘qish ko‘paygan. 1930-yillarda barcha ustalarni birlashtiruvchi kooperatsiya tarmog‘i yaratilgan. 1938-yilda “O‘zbektekstil”ni tashkil topishi sababli kooperatsiya tugatilib, ishlab chiqarish to‘la davlat nazoratiga o‘tgan. 1976-yildan Yengil sanoat vazirligi tomonidan hunarmandchilik ko‘rinishidagi avvalgi to‘qimachilik korxonolari qayta tiklanib, dastlab Marg‘ilonda xonatlasga; keyin Shahrisabz, Kitob, Urganchda atlas va beqasamga; Boysunda jandi ishlab chiqarishga moslangan korxonalar ishga

⁵⁶ Шоёкубов Ш. Лакли миниатюра: шаклланиш муаммолари. // Ж. SAN’AT. - Т., 1998, 1-3 – сонлар, - 39-б.

⁵⁷ Фахретдинова Д.А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Т.: Изд. лит. и иск. им.Г.Гуляма, 1972. – 92 с.

tushgan.

XX asrda, avvallari xon saroyida bo'lgan zardo'zlik, yangi davrda zamonga hamnafas rivojlandi. 1920-1980-yillarda zardo'zlikning shakli va buyumlarning xillari tubdan o'zgardi. Urushdan keyin mahobatli namoyonlarni tikish boshlandi. Agar soha avval Mahalliy sanoat vazirligi tizimida bo'lgan bo'lsa, 1962-yilda Buxoro zardo'zlik fabrikasi yangi binoga ko'chadi. 400 dan ortiq ustaga ish o'rni yaratiladi. 1990-yillarda zardo'zlik keng tarqalgan hunarga aylandi. Buxorodan tashqari, Andijon, Uchqo'rg'on, Kosonsoy, Samarqand, Urgut, Qarshida rivojlandi. Afsuski, Mutaqillikning dastlabki yillarida mamlakatdagi iqtisodiy tanglik bu san'atning badiiy saviyasini tushirib yubordi. B.Jumayevning sa'y-harakatlari bilan zardo'zlik san'ati avvalgi sifatini ancha o'nglab oldi.

Bobning materiallaridan xulosa qilish mumkinki:

1. Kulolchilikda XIX asrning oxiridagi badiiy bezaklar saqlanib, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sharoitlar ta'sirida yangi davrning nafasi paydo bo'ldi.
2. Sovet davrida kashtachilikka syujetli kompozitsiyalar kirib keldi.
3. Xalq o'yinchoqlari tizimida yangi ko'pfigurallik tematik mavzuli haykachalar paydo bo'ldi.
4. Yog'och, ganch o'ymakorliklarida, yog'och naqqoshligida soya bilan naqsh ishlashga e'tibor qaratildi.
5. Shahar madaniyati tizimida toshqog'ozga naqsh chizish, undan turli shakldagi qutichalar yasash, yuzani qora fonga qoplab, ustiga mo'jaz miniatyura tasvirlarini chizish amaliyoti muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Mustaqillik yillaridan kartina ko'rinishidagi miniatyuraga e'tibor kuchaydi.
6. Gilamdo'zlik XX asr mobaynida turli hududlarda to'qilgan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida to'la shahar madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.
7. Sovet hokimiyati yillarida, zardo'zlar, agar ilgari faqat xon saroyiga xizmat qilishgan bo'lsa, endilikda korxonalar ishga tushdi. Yangi jamiyatga mo'ljallangan mahsulot chiqarila boshlandi.

Dissertatsiyaning **“Ilmiy ekspeditsiyalar orqali O'zbekiston badiiy hunarmandchiligining to'planishi va muzeylashtirilishi”** nomli uchinchi bobi 3 bo'limdan iborat: 1. Muzey kolleksiyalarini yaratilishida ilmiy ekspeditsiyalarning o'rni; 2. XX asr O'zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirish masalalari; 3. Muzey kolleksiyalari – O'zbekiston naqqoshligini o'rganishda muhim manba.

XX asrning boshida yashagan O'rta Osiyo xalqlari va millatlari tarixini, tilini va etnografiyasini ilmiy o'rganib, fanda salmoqli ishlari qilgan olimlardan biri – Mixail Stepanovich Andreyev bo'lgan.

O'zbekiston davlat san'at muzeyida olim Xufdan olib kelgan bolalar va kattalarning jun ipdan qo'lda to'qilgan, tizzagacha va undan tepaga chiqib turuvchi paypoq, ayollar peshonasiga bog'laydigan *peshonabandlar*; Nurotadan va Pomirdan olib kelingan *peshikurta* va *jiyaklar* saqlanadi. 1958-yilda nashr qilgan “Xuf vohasi tojiklari” nomli kitobining ikkinchi jildini 248-betida paypoqlarni ayollar echki junidan yigirilgan ipda to'rtta “six” nomli to'qish tayoqchada to'qishganini yozadi. 1920-yillar oxiridan bigizdan ham foydalanilgan. Xalq uni

ham “six” deb ataydi. Aslida bu usulning nomi – “yak-sixa”.

Shunday paypoq va qo‘lqoplardan 100ga yaqini O‘zbekiston davlat san’at muzeyining “Kiyim-kechak” kolleksiyasida saqlanadi. Afsuski, ular qachonlardir muzeyning ko‘rgazmalarida namoyish etilgani, yoki ilmiy tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgani, muzeyning sobiq direktorlaridan Sh.Hasanovaga tegishli⁵⁸, muzeyda 1940-60-yillarda turli lavozimlarda ishlagan S.M.Krukovskayaga tegishli hujjatlar orasida⁵⁹ yo‘qligini aniqladik.

1934-yilda M.S.Andreyev Toshkentga qaytib, O‘zbekiston san’at muzeyiga (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at muzeyi) ilmiy maslahatchi bo‘lib ishga kirgan. Olim yangi ekspeditsiyalarda qatnashgan. U shu yili yana Yangobga borib kelgan. 1936-yilda san’at muzeyidan Buxoro va Xivaga ekspeditsiya uyushtirgan. 1937-yilda Nurota va Marg‘ilonga borib, u yerdan noyob kashtalarni muzeyga olib kelgan.

1920-1940-yillarda O‘zbekiston davlat san’at muzeyi va O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida ilmiy ekspeditsiyalar orqali ashyolarni to‘plash ishlarini amalga oshirgan.

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi 1918-yilda N.K.Romanov kolleksiyasini davlat hisobiga o‘tkazish asosida tashkil qilingan⁶⁰.

To‘plamda “O‘zbekiston kulolchiligi” kolleksiyasi xilma-xilligi, boy tarkibi bilan nafaqat respublikada, balki XIX-XX asrlarga taalluqli O‘zbekiston kulolchiligi kolleksiyasi bor jahonning boshqa to‘plamlari orasida ham noyoblighi bilan ajralib turadi. Unda umumiy hisobda 2500 mingga yaqin sopol buyumlar jamlangan bo‘lib, kolleksiya asosini XX asrga oid eksponatlar tashkil etadi.

Muzeyning ikkinchi eng noyob kolleksiyasi – kashtalar. Kolleksiyada 2007-2009-yillardagi dalolatnomalarga ko‘ra 1822 dona kashtachilik namunalari saqlanadi. Choyshab, gulko‘rpa, so‘zanalar O‘zbekistonni barcha kashtachilik maktablarida yuksak did bilan tilikgan. Afsuski, kolleksiya hujjatlarida ashyolar hisobini to‘g‘ri yuritishda ayrim kamchiliklar bor.

Uchinchi noyob kolleksiya – kiyim-kechaklar to‘plami. Bu to‘plamda mutaxassislar nazariga tushishi mumkin bo‘lgan ikkita noyob kolleksiya bor: 1) paranjilar; 2) peshikurtalar (ayollar an’anaviy ko‘ylagining lenta ko‘rinishidagi yoqa bezagi); 3) jiyaklar.

Muzeyda jiyaklarning noyob kolleksiyasi bor. O‘zbekistonda an’anaviy jiyakchilikning asosiy markazlari – Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Shahrisabz. Ularda jiyaklar an’anaviy liboslarning bo‘lagi sifatida, boshqa holatda esa ayollar lozimining, do‘ppilarning bezagi sifatida tikiladi.

O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligining eng noyob va bugungi kunda dolzarblik kasb etadigan kolleksiyalaridan biri – chitgarlik. Kolleksiyada 115 ta Xorazmda, Buxoroda, Samarqandda, Toshkentda, G‘ijduvonda, Marg‘ilonda tayyorlangan noyob namunalar bor. XX asr davomida, xatto 1950-60-yillarda, chitgarlik nafaqat qishloq, balki shaharliklar tomonidan arzonligi, estetik ahamiyati

⁵⁸ ЦГА, Ф–№2665, опись №1, ед.хр.№93.

⁵⁹ ЦГА, ЛФ–№2665, опись №1, ед.хр.№116.

⁶⁰ Круковская С.М. В мире сокровищ. – Т., 1982 – С.7.

bilan qadrlangan. Bu ijod, afsuski, 1990-yillarga kelib inqirozga uchradi. Keksa ustalar vafot etishdi, avlodlar almashti. Chetdan kirib kelgan chitgarlik mahalliyini bozordan suqib chiqardi. Xullas, sohaga talab pasaydi. Natijada farzandlar ota kasbini davom ettirmay, boshqa sohalarga o'tib ketishdi.

Chitgarlik sohasini – xalq hunarmandchiligining boshqa sohalariga qaraganda, bir paytning o'zida ikkinchi xalq hunarmandchiligi sohasi bilan chambarchas bog'liq. Gap qoliplar haqida. O'zbekiston davlat san'at muzeyida ularning 1400 dan ortig'i saqlanadi. To'planning tashabbuskori – professor M.S.Andreyev bo'lib, 1936-yilda muzeyning Buxoro va Xivaga, 1937-yilda Nurota va Marg'ilonga qilgan etnografik-san'atshunoslik ekspeditsiyalari paytida dastlabki 130 ta namunalar sotib olgan. Keyingi yillarda muzeyga qo'shimcha yirik partiyadagi qoliplar kirim qilingan⁶¹.

Bu galgi ishlar M.S.Andreyevning shogirdi, – N.V.Rusinova tomonidan amalga oshirilgan. Olimaning ekspeditsiyalari Ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan⁶². Olimaning bevaqt vafotidan keyin kolleksiya ashyolari boshqalar tomonidan tartibga keltirilib, 1970-80-yillarda ilmiy pasport yozishgan⁶³.

Yaqin oragacha olib borilgan tadqiqotlarda qoliplar faqat chitgarlikda ishlatiladi degan qarash bor edi⁶⁴. Lekin muzey kolleksiyasini sinchiklab o'rganish paytida ulardan o'z paytida ayollarning ipak sharflariga ham naqsh bosishda foydalanilgani ma'lum bo'ldi. Xatto kolleksiyada boshqa to'rtta qolip borki, ulardan teridan qilingan sandiq va qutilarga gul tushirishda foydalanilgan.

Muzeyning ilmiy ishlariga, xususan S.M.Krukovskya faoliyatiga, to'xtalib ketmoqchimiz. Chunki, u bizning mavzuga aloqadir ancha ishlarni amalga oshirgan.

Krukovskaya Sofya Mixaylovna – 1950-60-yillarda O'zbekiston davlat san'at muzeyida faoliyat olib borgan taniqli muzey xodimi.

1951-yil aprel oyida Muzey direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimiga vaqtinchalik tayinlandi⁶⁵. Bu lavozimga tayinlanganidan so'ng, O'zbekiston xalq amaliy-bezak san'atini o'rganishni boshlaydi. Uning ilmiy-ommabop nashrlari orasida 1977-yilda Toshkentda nashr qilingan “Qo'qon bilan uchrashuvlar” kitobi e'tiborli. Kitobning qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxivida saqlanmoqda. Nashr versiyasidan ancha farq qiladi.

Boshqa gazeta maqolalarida o'sha yillardagi xalq amaliy-bezak san'atining ayrim turlaridagi ahvolni tahlil qiladi. Masalan, “Badiiy chinni ko'rgazmasi” maqolasida O'zbekiston davlat muzeyida Dmitriyev nomidagi chinni zavodida samarqandlik kulol ustasi L.S.Turkevichning eskizlari bo'yicha yaratilgan

⁶¹Русинова Н.В. Набойки Бухары. Рук. Научный архив Государственного музея искусств Узбекистана. Инв.№273. – С.1.

⁶² Круковская С.М. В мире сокровищ. – Т., 1982.

⁶³ Фатхуллаев Р.С. Колыбы Узбекистана // Ж. Мир музея. – №3. – М., 2010. – С.46.

⁶⁴Аведова Н.А. Резьба по дереву в Узбекистане (творчество народных мастеров XIX – XX вв.). Дисс.канд.иск. – Т., 1970. – Библиотека НИИ искусствознания Академии художеств Узбекистана. – ИА (А19), №698; Block printing in Uzbekistan. Past and Present. UNDP Project for Cultural Tourism, Job Creation and Handicraft Development. – Т., 1997.

⁶⁵ См.: подлинник трудовой книжки С.М.Круковской с 1930 г. и машинописной копии трудовой книжки. – ЦГА, ЛФ–№2665, №1, ед.хр.№111.

ko'rgazma (1953) haqida xabar beradi⁶⁶.

1959-yilda I.Pritsa bilan hamkorlikda nashr qilgan "Bizning chinni va kulolchilik buyumlarimiz haqida" nomli maqolasida, mualliflar O'zbekiston davlat san'at muzeyida P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik kolleji, Baranov nomidagi kulolchilik arteli va Toshkent chinni zavodi ustalari ko'rgazmasi haqida xabar beradi. Ko'rgazmaning ijobiy tomonlarini sanarkan, mualliflar ba'zi kamchiliklarga ham e'tiborni qaratadilar⁶⁷.

Ilgari yirik naqqoshlar bisotida naqsh kompozitsiyalarining eskizlari saqlagan. Ularni ustalar yoki avvalgi davrlarda yashagan ustazodalaridan olishgan, yoki o'zlari ixtiro qilishgan. Ayrim naqqoshlarning eskizlari ilmiy doiralarda o'rganilgan⁶⁸. Ayrimlari yo'q. Shulardan biri – qo'qonlik mashhur usta Lutfulla Fozilov albomi.

Albom zavodda (bosmaxonada) tayyorlangan, do'kondan sotib olingan. Umumiy 28 bet. A4 formatda, gorizontaal ko'rinishda. L.Fozilov tomonidan Qo'qonda 1960-yilning iyun oyidan boshlanib, 1961-yilning mart oyigacha bo'lgan ijodidagi asosiy jarayonni yoritadi. 1961-yilning iyunida muzeyga kirim qilingan.

Bu albomdan tashqari yana "Chitgarlik" kolleksiyasida 50dan ziyod ustalarning naqsh namunalari, qoliplar uchun naqsh eskizlari, do'ppilar uchun yasalgan qoliplarning izi, qo'qonlik usta Q.Haydarovning bir necha pargoriy o'ymalari namunalari saqlanadi.

Xulosa shuki:

1. Muzeylar fondini ilmiy shakllantirishda ekspeditsiyalarning o'rni beqiyos bo'lgan. Joylarlarda dala yig'imini o'tkazgan olimlarning aksariyati etnograflar bo'lgan. Aynan ularning say'-harakatlari bilan muzeyga o'zbek badiiy hunarmandchiligi va amaliy-bezak san'atining yorqin namunalari to'plangan. Lekin afsuski, ayrim kolleksiyalarning inventar kitoblari muzeyda yo'qolgan. Kitob qayta tiklanmagan. Istalgan paytda muzey boyligini o'g'irlanishi yoki boshqasiga almashtirib qo'yish xavfi bor.
2. O'zbekiston muzeylarida badiiy hunarmanchilikning noyob namunlari eskidan qolgan metod – zallarda hunarlar turi kesimida namoyish qilinadi. Afsuski, bu metod Kafanov nomidagi Klub zali uchun yaratilgan edi. O'shanda, xona yetishmasligidan, katta material bitta 18-zalda namoyish qilingan⁶⁹. Muzey 1974-yilda yangi binoga (hozirgisiga) ko'chib o'tgan. Amaliy-bezak san'ati kolleksiyalari 14 ta zalda namoyish qilinadi. Materialning asosiy qismi – mahalliy xalqning turmushi bilan bog'liq. Endigi ekspozitsiyaning ayrim joylarida etnologiya muzeylari metodidan foydalanilsa, material madaniyatlar

⁶⁶ Газета «Ташкентская правда». №266 от 11 ноября 1953 г. – ЦГА, ЛФ–№2665, №1, ед.хр.№26.

⁶⁷ Газета «Ташкентская правда», №143 от 22 июня 1959 г. – ЦГА, ЛФ–№2665, №1, ед.хр.№46.

⁶⁸ Farg'onalik mashhur usta Saidmahmud Norqo'ziyevning ayrim naqsh chizmalari Po'lat Shohidovich Zohidov tomonidan nashr qilingan. –Захидов П.Ш. Ферганская роспись (из альбома народного мастера Саидмахмуда Наркузиева). – Т., 1960; Xivalik naqqosh Abdulla Boltayevning naqsh chizmalari A.S.Morozova tomonidan nashr qilingan. – Морозова А.С. Хивинский узор (на примере творчества Абдуллы Балтаева). – Т., 1957; Прица И. Тошкент ганчорлиги (Халк устаси Тошпўлат Арслонкуловнинг ганчоклик ишлари). – Т., 1960; Ноткин И.И. Бухарская резьба по ганчу (на примере творчества Ширина Мурадова). – Т., 1961 v.b.

⁶⁹ Музей искусств Узбекистана. Путеводитель. – Т.: Узбекистан, 1965. – С.47.

- kesimida yaxlit jonlanadi va tomoshabilarga ko‘proq tushunarli bo‘ladi.
3. XX asrda O‘zbekistonda rivojlangan hamma badiiy hunarmandchilik va amaliy-bezak san‘ati sohalari muzeylarda qamrab olinmagan. Masalan, O‘zbekiston davlat san‘at muzeyida lakli miniatyura, poxolpoya san‘ati kabi kolleksiyalar yo‘q. Borlari, masalan, xalq o‘yinchoqlari kolleksiyasi, yillar davomida yangi ashyolar bilan to‘dirilmagan.
 4. “Xalq naqshlari” kolleksiyasi ashyolari yillar davomida na ilmiy muomalaga kiritilgan, na ekspozitsiyada namoyish qilingan.
 5. XX asr davomida jadal rivojlangan ayrim sohalar, masalan, badiiy shisha, Toshkent chinni zavodida ishlab chiqarilgan noyob sovg‘abop buyumlar, O‘zbekiston lokli miniatyurasi, noan‘anaviy badiiy hunarmandchilik sohalaridan – gobelen, badiiy chinni, noan‘anaviy kulolchilikka xos kolleksiyalar yaratilmagan. “Noan‘anaviy” yo‘nalishdagi badiiy ijod namunalarini, galdagi tadqiqotlarda, chalkashliklarni oldini olish maqsadida, “zamonaviy” yo‘nalish deb qabul qilishni taklif qilamiz.

XULOSA

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilgan tahlillari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XX asr – nafaqat O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi, balki san’atining boshqa sohaları uchun ham muhim davr bo‘lgan. Bir tomondan asriy an’analari, yangi sovet tuzumining baynalminal madaniyati bilan dialogga kirishdi. San’atda yangicha qarash paydo bo‘ldi. Aholining milliy turmush tarzi zamonaviylashdi.

2. XX asr boshidagi hunarmandchilik ustaxonalari, sovet davriga kelib, asta o‘quv kombinatlarga, artellarga, zavod-fabrikalarga aylantirilgan.

3. Tasviriy san’atni jadal rivojlanishi, mafkura – an’anaviy xalq badiiy hunarmandchiligi sohalariga ham yangicha qarashlarni olib kirgan. Sovet davlatining ramzlari va plakatlardagi shiorlar badiiy hunarning hamma sohalariga, hatto konservativ sanalgan ganch va yog‘och o‘ymakorligi asarlarigacha kirib borgan.

4. Ustalar sovet yillarida ijodlarini to‘laqonli ko‘rsata olgan bo‘lsalar, mustaqillik yillaridan buyurtmachining didi ustunlik qila boshladi.

5. XX asrning 30-yillarida, ikkinchi jahon urush yillarida badiiy hunar – kundalik turmushning ajralmas qismi hisoblangan bo‘lsa, yangi zamonda o‘zbek madaniyatining bo‘lagiga aylandi. Mustaqillik yillaridan esa sovg‘abop buyumga aylanib bormoqda.

6. XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligini muzeylashtirish ilmiy ekspeditsiyalar yig‘gan ashyolar asosida olib borildi.

7. Ayrim mualliflar yoqolgan badiiy hunarmandchilik markazlarini qayta tiklashni taklif qiladilar. Tiklansa-yu asosiy iste‘molchi mahalliy aholi bo‘lmasa... Agar ashyolar faqat xorijliklar uchun ishlab chiqarilsa va asosiy e‘tibor valyuta tushumiga qaratilsa, – buni xalq ijodi deb bo‘lmaydi.

8. Mustaqillik yillarida kishilarning e‘tiqodi tan olindi. Dinlarning mavqei tiklandi. Lekin xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy-bezak san’atidagi kishilarni yomon ko‘zlardan saqlovchi yoki ularga baxt tilovchi realistik tasvirlar hamon muomaladaligi aniqlandi.

9. Mualliflar mustaqillik yillarida ayrim viloyatlarda yangi badiiy hunar sohalarini paydo bo‘lganidan xavotirdalar. Bizningcha – bu normal hodisa.

10. O‘zbekiston davlat san’at muzeyi badiiy hunarmandchilik va amaliy-bezak san’ati namunalarida tashkil topgan kolleksiyalar 1935-1950-yillardagi ilmiy ekspeditsiyalar hisobiga shakllangan. Keyingi yillarda bunday ilmiy ekspeditsiyalar to‘xtab qolgan.

11. XX asr O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi boshqa muzeylarga qaraganda, O‘zbekiston davlat san’at muzeyida tizimli to‘plangan.

12. XX asrdagi kashtalar ham muzeyda yaxshi to‘plangan. “Kandakorlik”, “Badiiy matolar”, “Yog‘och va ganch o‘ymakorligi”, “Badiiy naqqoshlik”, “Zardo‘zlik” kolleksiyalarining badiiy va ilmiy qiymati – Yevropa muzeylarinikidan yuqori turadi. Shu bilan birga lakli va qog‘ozga chizilgan miniatyuralar tizimli yig‘ilmagani aniqlandi.

13. “Xattotlik”, “Xalq naqshlari”, “Kiyim-kechak” kolleksiyalarida ish to‘xtab qolgan. Kolleksiya mustaqillik davridagi ijod namunalari kiritilmagan. “Qo‘g‘irchoq teatri” kolleksiyasi esa atigi 17 ta 1937-yilda Moskvadan berilgan ashyo bilan to‘xtagan. Boshqa kolleksiyalarni yaratish va borlarini yangi ashyolarga to‘ldirish ishlariga kam e‘tibor qaratilgan.

14. O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi va O‘zbekiston amaliy san‘ati va hunarmandchilik tarixi davlat muzeylari kolleksiyalarida davriy uzilishlar bor. XX asrning 1990-yillaridan boshlab, yangi kolleksiyalarni yaratish oqsagan.

15. Muzeylarda saqlanayotgan predmetlarning ilmiy pasportlarini yuritish XX asrning 1990-yillariga qadar sifatli amalga oshirilgan. Afsuski jarayon avvalgi davrlarda bo‘lganidek ilmiy salohiyatini yo‘qotgan.

16. SKM (Davlat katalogi) dasturlari rus tilida. Davlat tilidagi ma‘lumotlar yetarli emas. Bundan tashqari, SKMda amaliy-bezak san‘ati, etnografiya, maishiy buyumlarning hammasi bitta guruhga kiritilgan.

Shulardan kelib chiqib, quyidagi **takliflar** tavsiya qilinadi:

1. Kuratorlar Respublikadagi hamma ijodkorlar bilan birma-bir ishlay olmaydilar. Biz xalq ustalari faoliyatiga parallel XX asrda faoliyat ko‘rsatgan zavodlar (sex) faoliyatini tiklash maqsadga muvofiq deb topdik.

2. O‘zbekiston amaliy san‘ati va hunarmandchilik tarixi Davlat muzeyi O‘zbekiston davlat san‘at muzeyining filiali sifatida faoliyat ko‘rsatsa, 1) kolleksiyalarni jamlash, namoyishga qo‘yish ishlari takomillashishi mumkin; 2) tizim ixchamlashadi; 3) O‘zbekiston amaliy-bezak san‘ati va badiiy hunarmandchiligi bir makonga yig‘iladi, targ‘ib qilinadi, ta‘mirlanishi va ilmiy o‘rganilishiga asos yaratiladi; 4) O‘zbekiston davlat san‘at muzeyining sohaga tegishli kolleksiyalari tarixiy binoda naqqoshlar ijodi fonida namoyish qilinadi.

3. Kolleksiylarni yilda bir marta davlat hisobiga to‘ldirilish amaliyoti o‘zini oqlamaganligi sababli kolleksiyalar: 1) ilmiy ekspeditsiyalardan; 2) ustaxonalardan tanlab olingan ashyolar asosida; 3) muzeylarning ustalarga oldindan bergan buyurtmalari asosida to‘ldirilishi lozim. Bunda muzey jarayonda qatnashishi kerak.

4. Muzeylarning ekspozitsiyalarida etnologiya muzeylarining metodidan qisman foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda tomoshabin ashyoni turmushdagi o‘rnini va tutash ijod namunalari bilan bog‘liqligini ko‘radi.

5. Mustaqillik yillarida paydo bo‘lgan yangi badiiy hunar sohalari bo‘yicha yangi kolleksiyalarni yaratish zarur.

6. Muzey predmetlarining ilmiy pasportiga va elektron bazasiga jiddiy ahamiyat berilishi kerak.

7. O‘zbekiston muzeylari bo‘yicha internetda SKM dasturini (Davlat Katalogi) ishga tushirishdan maqsad – muzeylar kolleksiyasini ommaga yanada yaqinlashtirish uchun davlat tilidagi ma‘lumotlar bazasini yanada kuchaytirish lozim.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL
BASED ON THE SCIENTIFIC COUNCIL UNDER THE STATE MUSEUM OF
HISTORY OF UZBEKISTAN No. 02/09.07.2020.Tar.70.03**

**NATIONAL INSTITUTE OF FINE ART AND DESIGN NAMED
AFTER KAMOLIDDIN BEHZOD**

SADULLAEVA ZAMIRA RAVSHAN KIZI

**MUSEUMIFICATION OF ARTISTIC HANDICRAFTS OF UZBEKISTAN
OF THE 20TH CENTURY**

17.00.04 – Fine and applied-decorative art

**17.00.06 – Museumology. Conservation, restoration and
preservation of historical and cultural objects.**

**ABSTRACT OF THE DISSERTATION OF DOCTOR OF
PHILOSOPHY (PhD) ON ART STUDIES**

TASHKENT – 2024

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) is registered by the number B2020.1.PhD/San104. at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

The dissertation was conducted at the National institute of Fine Art and Design named after Kamoliddin Behzod

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (Resume)) on the web site (<http://www.history-museum.uz>) of the scientific council and on the Informational-educational portal "ZiyonET" (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:

Ismailova Jannat Khamidovna
Doctor of History, professor

Official opponents:

Kadirova Dilafruz Muxsinovna
Doctor of Art Study, senior researcher

Orifjonova Gulra'no Ravshan kizi
doctor of philosophy in historical sciences (PhD)

Leading organization:

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

The defense of the dissertation will be held at the one-time meeting of the scientific council based on scientific council number PhD.02/09.07.2020.Tar.70.03 under the State Museum of History of Uzbekistan on "___" _____ at ____, 2024. (Address: 100029, Tashkent city, Sharaf Rashidov street, 3, Small meeting hall of the State Museum of History of Uzbekistan. Tel.: (+99871) 239-10-83; fax: (+99871) 239-44-25; e-mail: info-historymuseum@academy.uz).

The dissertation is available in the Information-Resource Center of the State Museum of History of Uzbekistan (Registered by No. ____). Address: 100029, Tashkent city, Amir Temur Street 16) Tel.: (+99871) 236-74-36; fax: (+99871) 239-10-83.

The abstract of the dissertation was distributed on "____" _____ 2024.
(Register protocol № _____ on "____" _____" 2024).

A.A.Madramov

Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees t.e., Doctor
of History, professor

D.O.Karimova

Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philosophy in historical sciences (PhD)

B.V.Xasanov

Chairman of the Scientific Seminar under
the Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of History, professor

INTRODUCTION (abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. Today, the process of globalization, which is rapidly taking place around the world, does not limit the work of art crafts and museums, like all other fields. Despite the changes in the system, the artistic craft continued and developed its age-old art-pictorial system. The practical, decorative-applied arts and artistic handicrafts stored in the world's major museums and private collections have not lost their value even after several centuries. In particular, in many countries, interruptions in the production of high-quality handicraft products, efforts are being made to prevent the crisis of some arts and crafts industries, also indicate the relevance of this topic.

In the field of decorative-applied arts, preservation, demonstration and promotion of their traditions, as well as improvement of museums' activities in delivering them to the next generation, is of great importance in world art history. In particular, systematic replenishment of museum collections, implementation of planned expeditions in order to eliminate gaps in existing collections are among the important tasks facing this field. Also, at a time when various foreign ideas are on the rise, it is important to strengthen people's moral immunity by organizing exhibitions of art and crafts in museums.

"It is known that folk art, which is an integral part of universal culture, occupies a special place in the life of every nation in the world, in the development of its lifestyle and values"⁷⁰. One of the most important issues is that art and crafts appear as an important business card in the export of Uzbekistan's culture to foreign countries. Significant work is being done by the state in the implementation of these tasks. Emphasis is placed on the issues of providing employment to the population, further development of the existing folk crafts, radical reform of the industry, restoration of the forgotten industries, ensuring the continuation of the industries that have been inherited from generation to generation without blurring the environment (ecology) of the modern process.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5242 of November 17, 2017 "On measures to further develop handicrafts and comprehensive support of craftsmen", No. PF-6000 of May 26, 2020 "Culture and art Decree No. PQ-77 of December 30, 2021 "On Measures to Further Improve the Support System of Handicrafts" dated December 30, 2021 , PQ-261 dated May 25, 2022 "On measures to develop the field of services in museums" and Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 975 dated December 11, 2017 "Improving the activities of state museums in 2017-2027 and This dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decisions of "On approving the program of comprehensive measures to strengthen the material and technical base" and other adopted regulatory legal documents related to this activity.

⁷⁰ Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the opening ceremony of the first International Handicrafts Festival // "People's Word". – №192 (7422). - Tashkent, September 15, 2019. - P. 1.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was completed in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state."

Level of study of the problem. The scientific literature on the research of the museumization of art crafts of 20th century Uzbekistan in the field of art history and museology can be conditionally divided into three groups.

The topic of the dissertation was previously studied mainly in the scientific works of Russian and local scientists. Foreigners also learned. But they did not learn well during the Soviet and independence periods. They understand the international page of Uzbek art in the Soviet era as a violation of age-old traditions.

Scientific works created by Russian scientists before independence were included in the first group. Just as every period has its own political and ideological views, the 20th century also needs to be studied from the point of view of the Soviet ideology, based on the methodology of the scientific works of the leading politicians of its time, and some aspects of the approaches need to be reconsidered from a modern point of view, and the views that have lost their relevance need to be updated.

The name "SSSR" was unofficially removed from the scientific literature after the independence of Uzbekistan. The authors did not use the term "Soviet Union". However, to remember them is not to bash the Soviet system, but to understand the influence of the socialist camp ideology on the art of Uzbekistan for 70 years. It is impossible to understand the meaning of multinational international culture without the Soviet ideology (socialist realism), without the ideas of the founders of the system, just as it is impossible to understand Christian culture without the Bible, Islamic culture without the Qur'an (Hadith). The culture of Uzbekistan was also a component of the international culture that was based on atheism at that time.

